



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
SAMARQAND VILOYATI FILIALI**

Manzil: 140131, Samarqand shahar, Gagarin ko'chasi, 27-uy, Tel: +998 55-706-98-28

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/08-2405

HUJJAT TURI Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

**Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: ABDULLAYEVA MATLUBA
RAXIMOVNAga berildi.**

STIR: 40509583970015

Obyekt nomi: Samarqand tumani, "Qo'shko'prik" MFY, "Pillakor" ko'chasi 270-uy manzildan fuqaro Abdullayeva Matluba Raximovna tomonidan mayjud binolarni buzib o'rnidan yakka tartibdagi uy-joy binosini qurish uchun ishlab chiqilgan "Atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot" loyihasi

Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "SAM-LOYIXA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

STIR: 204625234

Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: NORKULOV G'IYOS NAJMIDDINOVICH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifa toifasining 7-bandiga mansub.

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 17.12.2024

Amal qilish muddati: 17.12.2027

Ekologik ekspertiza obyektingan ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rivoja etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.



Direktor

J.Po'lotov

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo‘yicha Ekspert xulosasi talablari

Fuqaro Abdullayeva Matluba Raximovna quyidagilarni ta’minlashi lozim:

-ushbu xulosa loyihada tasdiqlanim ko‘rsatilgan faoliyat turi (yakka tartibdagi uy-joy binosini qurish) uchun berildi, agarda hududda boshqa faoliyat turi (ishlab chiqarish yoki qo‘srimcha bino qurilsa) ushbu xulosa o‘z kuchini yo‘qotadi;

-majmuaning tasarrufi davrida quyidagilar ta’minlanishi kerak: chiqindilarni belgilangan joylarda muvofiq xavfsiz ravishda vaqtincha saqlash doimiy monitoringini olib borish va ortiqcha chiqindilarning joylashtirilishini oldini olish;

AMTTB loyihasiga muvofiq xulosaning shartlarini hisobga olgan holda, rejalashtirilgan chora-tadbirlarni bajarish, shuningdek korxonaning ekologik normativlariga rioya etilishini monitoringini amalga oshirish;

-maishiy chiqindilarni to‘plash va vaqtincha saqlash uchun maxsus punktlarni tashkil etish, ularni xili bo‘yicha alohida idishlarda yig‘ilishini ta’minlash va ularni olib chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.01.2021 yildagi 40-sonli “Qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi nizom talablariga amal qilish, shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.10.2018 yildagi 787-sonli “Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq tasdiqlangan “Sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasi obyektlarini joylashtirish va ulardan foydalanish hamda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish qoidalari”ga asosan ishlarni tashkil etish.

-loyihada ko‘rsatilgan tashkiliy ishlar tugatilganidan so‘ng, bino atroflari kompleks obodonlashtirish, daraxtlar ekib, “Yashil belbog” barpo qilish, yashil maydonlarni muntazam sug‘orish va doimo tozaligi saqlash shart;

-qurilish maydonida va atrofida daraxtlar bo‘lsa noqonuniy kesilishi va ziyon yetkazish man etiladi;

-eslatma! Obyektni tashkil etishda o‘simglik dunyosiga zararli ta’sirni kamaytirish uchun, obyekt hududida mavjud bo‘lgan o‘simgliklarni maksimal

darajada saqlash usullarini topish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-sonli “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonining 2-bandisini “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirilsin”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagagi PF-6155-sonli Farmonining 24-bandisini 6-xat boshiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-fevraldagagi 93-sonli “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini saqlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori talablariga muvofiq, vakolatli davlat organlariga davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga ruxsatnomasi berish man etiladi.

-obyektda, 2023-yil 23-noyabrdagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil Makon” Umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risi”da PF-199-sonli qaroriga asosan toza, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni hisobga olgan holda (xususan, qattiq maishiy chiqindilarni saralash va saqlashning eng yaxshi mavjud texnologiyalaridan foydalanishni hisobga olgan holda) amalga oshirilsin;

-loyihada ko‘rsatilgan tashkiliy ishlar tugatilganidan so‘ng, bino atroflari kompleks obodonlashtirish, daraxtlar ekish, yashil maydonlarni muntazam sug‘orish va doimo tozaligini saqlash shart;

-chiqindilarning xavfsiz shart-sharoitda to‘planishi, saqlash maydonida ekologik normadan oshiq joylashtirilmassligi, o‘z vaqtida utilizatsiya qilinishini doimiy nazoratda tutish;

-chiqindilarni xavflilik darjasini va turiga qarab ajratgan holda to‘plash va vaqtincha saqlashga mo‘ljallangan maxsus punkt (MSP) tashkil etish hamda qattiq qoplamlari maydonchalarda zarur miqdordagi qopqoqli konteynerlar o‘rnatish;

-hududda qattiq maishiy chiqindilar bilan ifloslanishining oldini olish maqsadida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash konteynerlar va vaqtincha saqlash uchun mo‘ljallangan maxsus chiqindi qutilari kirish (chiqish) yo‘lida bir biridan 10 metrdan uzoq bo‘lmagan masofada o‘rnatish;

-sanitar tozalash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan korxona bilan tuzilgan shartnomaga binoan maishiy chiqindilarning o‘z vaqtida olib ketilishini ta‘minlash;

-ushbu xulosa loyihada taqdim etilgan geografik koordinatada ko‘rsatilgan maydon uchun berildi, agar boshqa maydon tanlansa ushbu xulosa o‘z kuchini yo‘qotadi;

-obyektning qurilishida SanPiN, SHNQ va QMQ talablariga qat'iy rioya etish shart;

-obyektning qurilishi davomida buziladigan yerlarni tiklash va qayta foydalanish hamda rekultivatsiya tadbirni to'liq amalga oshirish;

-tabiiy muhitni ifloslanishini oldini olishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqish;

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-sonli "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining 2-bandiga asosan, yangi quriladigan, balandligi yer yuzasidan 12 metrdan va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan bino va inshootlarni loyihalashtirishda ularga tutash hududlarning ko'kalamzorlashtirish (daraxtlar, butalar, boshqa o'simliklar va nihollarni ekish) maydonlari loyiha uchun ajratiladigan yer uchastkalari umumiy maydonining 25 foizidan kam bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi (ekspluatatsiya muddatini o'tab bo'lgan va ma'nан eskirgan bino va inshootlarni renovatsiya qilish bundan mustasno).

-binoda yong'in natijasida atrof muhitni ifloslanishi va favqulodda holatlarni oldini olish maqsadida yong'in xavfsizlik qoidalariga amal qilish va yong'inga qarshi kerakli bo'ladigan jihozlar bilan ta'minlash shart;

-yon atrofdagi mavjud va loyihaviy inshootlar, obyektlar, yer osti va yer usti muhandislik hamda kommunikatsiya tarmoqlari bilan oraliq masofa me'yorlariga asosan saqlash;

-oqova suvlarni ochiq suv havzalari, irrigatsiya tarmoqlari va relyefga tashlash qat'iyan man etiladi;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrdagi 981-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori talablariga asosan buyurtmachi obyektni ochiq suv havzalarining sanitar muhofaza va qirg'oq mintaqasi zonalarini saqlagan holda qurilish ishlarini tashkillashtirishi lozim;

-chiqindilar miqdorini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda tadbiq etish;

-texnik ishlarga sarflanadigan suv va korxonada hosil bo'lgan oqova suvlar uchun shartnomalar rasmiylashtirish;

-obyektni ishga tushirishdan oldin, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chiqindilarning hosil bo'lishi va olib chiqilishi bo'yicha ekologik standartlar chiqindilarning cheklangan miqdori (ChChM) loyihasini ishlab

chiqish va davlat ekologik ekspertizasiga taqdim etish (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-yanvardagi 14-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomning 21-bandı).

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-apreldagi 202-sonli “O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan obyekt hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi uchun to‘liq kompensatsiya to‘lovlarini amalga oshirishi lozim.

Buyurtmachi Davlat ekologik ekspertizasi xulosasida ko‘rsatilgan talablarga rioya etmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.09.2020 yildagi 541-sonli (Atrof muhitga ta’sirini baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida) qarorining 7-bobida xulosani amal qilishini to‘xtatilishi belgilab qo‘yilgan.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmaganligi uchun korxona rahbari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘lishini eslatib o‘tamiz.

O'zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonunning 22-moddasiga binoan, ushu obyektning ekologik talablarga muvofiqligi xususida Davlat ekologik ekspertizasining bergan xulosasi, berilgan kundan e’tiboran 3 yil mobaynida yuridik kuchga ega. **Xulosada ko‘rsatilgan shartlar bajarilmaganda va yuqorida ko‘rsatilgan faoliyatdan tashqari boshqa qo‘srimcha faoliyat turlari tashkil etilganda, tashlamalar va chiqindilar miqdori o‘zgargan taqdirda, ushu obyektning ekspertiza xulosasi o‘z kuchini yo‘qotadi.**

Samarqand viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Samarqand tumani inspeksiyasiga fuqaro Abdullayeva Matluba Raximovna tomonidan ekologik qonunlari va me’yorlariga rioya etilishi ustidan muntazam nazorat olib borish yuklatiladi.

Loyihaning maqbulligi to‘g‘risidagi Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi qonunda belgilangan tartibda davlat idoralari va tashkilotlardan tegishli ruxsatnomalarni olish zaruratinini almashirmaydi yoki bekor qilmaydi.



Ma’sul ekspert: NORKULOV G‘IYOS NAJMIDDINOVICH

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

“Davlat ekologik ekspertizasi markazi” DM Samarqand viloyati filialiga, Samarqand tumani, “Qo’shko‘prik” MFY, “Pillakor” ko‘chasi 270-uy manzildan fuqaro Abdullayeva Matluba Raximovna tomonidan mavjud binolarni buzib o‘rnidan yakka tartibdagi uy-joy binosini qurish uchun ishlab chiqilgan “Atrof-muhitga ta’siri to‘g‘risidagi bayonot” (AMTTB) loyihasi taqdim qilindi.

Loyiha O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-sonli “Atrof muhitga ta’sirini baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori va boshqa me’yoriy qo’llanmalar asosida ko‘rib chiqildi.

Taqdim etilgan materiallarni ko‘rib chiqib, “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” DM Samarqand viloyati filiali quyidagilarni ta’kidlaydi.

Loyihada “Qo’shko‘prik” MFY raisi tomonidan 2024-yil 1-noyabrda tasdiqlangan, obyekt yaqin atrofida yashovchi fuqarolar ishtirokidagi jamoat eshituvining bayonnomasi ilova qilingan, unga ko‘ra obyektga yaqin joylashgan aholi ushbu hududda mazkur obyekt ish faoliyatini yuritishiga qarshi emasligi keltirib o‘tilgan; Arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i 2024-yil 11-oktabrda 1718-1718401-201187-sonli; Bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilish hamda o‘z hududida qo‘srimcha bino va inshootlarni qurish uchun ruxsatnoma 2024-yil 26-iyuldagи 137169232-son; 2024-yil 2-dekabrda №514-raqamli obyektni elektr tarmoqlariga ulanish uchun texnik shati; 2024-yil 13-noyabrda №1 obyekt hududida xosil bo‘ladigan chiqindilarini olib chiqib ketish uchun “MAX FORTUNA TREND” MChJ korxonasi bilan shartnoma tuzilgan; 2024-yil 2-dekabrda №143 Samarqand viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasining Samarqand tumani inspeksiyasi bo‘lim boshlig‘i J.Xodjaev tomonidan obyektni joyiga chiqib o‘rganganligi to‘g‘risidagi ma'lumotnomasi loyiha hujjatida ilova qilingan, unga ko‘ra qurilish uchun tanlangan maydonida daraxtlar va butalar mavjud emas deb keltirib o‘tilgan.

Loyihaga ko‘ra obyektning geografik koordinatalari quyidagicha:

39°36'55.06" shimoliy kenglik va 66°58'33.21" sharqiy uzunlikda;

39°36'55.69" shimoliy kenglik va 66°58'34.55" sharqiy uzunlikda;

39°36'54.64" shimoliy kenglik va 66°58'35.49" sharqiy uzunlikda;

39°36'53.93" shimoliy kenglik va 66°58'34.13" sharqiy uzunlikda joylashgan.

Loyihaga ko‘ra obyektning qurilish osti geografik koordinatalari quyidagicha:

39°36'54.59" shimoliy kenglik va 66°58'33.88" sharqiy uzunlikda;

39°36'55.08" shimoliy kenglik va 66°58'34.84" sharqiy uzunlikda;

39°36'54.10" shimoliy kenglik va 66°58'34.23" sharqiy uzunlikda;

39°36'54.66" shimoliy kenglik va 66°58'35.32" sharqiy uzunlikda joylashgan

Loyihaga ko‘ra obyekt joylashgan hududning fizik-geografik va iqlim holati xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar “Atrof-muhitga ta’siri to‘g‘risidagi bayonot” (AMTTB) loyihasining 1-bo‘limida to‘liq keltirilgan. Obyekt hududi atrofida daraxtlar mavjud, agarda ushbu daraxtlar kesilsa yoki shikast yetkazilsa qonuniy chora ko‘riladi.

Loyihaga binoan, obyektning maydoni 1715,8 m², qurilish osti maydoni 836,5 m², qattiq qoplamlari maydon 657,4 m², yashil maydon 114 m²ni tashkil etib, joylashuvi shimoldan mavjud binolar, janub va sharq tomonlardan - mahalliy yo‘l bilan, g‘arb tomonidan - avtomobillar yo‘li bilan chegaralangan. Eng yaqin uy-joy binolari 5 metr masofada joylashgan. Gidrogeologik nuqtai nazaridan yer osti suvlarini yer yuzidan 6,8-8,4 metr chuqurlikda ochiladi.

Loyihaga ko‘ra fuqaro Abdullayeva Matluba Raximovna tomonidan mavjud binolarni buzib o‘rnidan yakka tartibdagi uy-joy binosi, yashil maydon, hojatxona maishiy chiqindilarni vaqtincha saqlash uchun joy qurish rejalashtirilgan. Obyekt xonalarini isitish uchun zamonaviy konditsionerdan foydalaniladi. Obyektni ichimlik suv taminoti kichik quduqdan foydalaniladi.

Loyihaga ko‘ra atmosfera havosiga umumiy miqdorda yiliga-0,53 tonna ifloslantiruvchi moddalarni tashlanishi kuzatiladi. Azot (II) oksidi-0,0239356 t/yil, azot (IV) oksidi-0,147296 t/yil, oltingugurt dioksidi-0,031114 t/yil, uglerod oksidi- 0,25022 t/yil, kerosin-0,05234 t/yil, noorganik chang: (70-20%)-0,00286 t/yil, chiqariladigan tashlanmalar kuzatiladi.

Loyihaga ko‘ra obyekt ish faoliyati davrida xo‘jalik-maishiy ehtiyojlar uchun umumiy suv sarfi-45,92 m³/yiliga tashkil etadi. Ichimlik ehtiyojlari uchun-13,92 m³/yil, chang cho‘ktirish 24,0 m³/yil, yong‘inga qarshi havuz 8,0 m³/yil, suv sarflanadi. Xo‘jalik-maishiy oqova suvlarini ichki quvirlar orqali suv o‘tkazmaydigan uraga vaqtincha tashlanib shartnoma asosida olib chiqib ketish rejalashtirilgan.

Yer osti va yer usti suvlarini ifloslanishdan himoya qilish uchun maishiy oqovalar uchun mo‘ljallangan o‘rani ochiq suv havzalaridan maksimal uzoqlikda hamda suv o‘tkazmaydigan temir-beton konstruksiyadan yig‘ish, patogen mikroblar va bakteriyalarni ko‘payishini oldini olish uchun o‘rani vaqt-vaqt bilan dezinfeksiyalovchi vositalar bilan dezinfeksiya qilish va kelajakda, hosil bo‘lgan xo‘jalik-maishiy oqova suvlarini tashlash uchun eng yaqin kanalizatsiya tarmog‘iga ulanish imkoniyatini ko‘rib chiqish zarur.

Loyihada keltirilgan ma’lumotlarga asosan obyekt faoliyati davrida chiqindilar hosil bo‘lib, ularning umumiy miqdori yiliga-0,927 tonnani tashkil etadi, shu jumladan: aholi hayotiy faoliyati davomida hosil bo‘ladigan chiqindilar-0,2 t/yil, binoni tozalashda ishlatalgan latta chiqindilari-0,007 t/yil va suprindi hamda qattiq

maishiy chiqindilar-0,72 t/yilni tashkil etadi. Chiqindilar maxsus g‘ildirakli kontinerga vaqtincha yig‘ilib shartnomaga asosida olib ketish rejalashtirilgan.

Har bir chiqindi turi uchun uni vaqtincha saqlash joylarini va ularning keyingi harakatlari ekologik tadbirlarini ko‘rib chiqish hamda chiqindi konteynerlarini o‘rnatish uchun maxsus betonlashtirilgan maydonni tashkil etish shart. Chiqindilarni olib chiqib ketish uchun mas’ul korxona bilan shartnomaga tuzilsin.

Loyiha hujjatida atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan chora-tadbirlar hamda vijudga kelishi mumkin bo‘lgan avariyalı holatlar, yong‘in xavfsizligi va ularning oldini olish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

Davlat ekologik ekspertizasining tahliliy natijalariga ko‘ra, ko‘rib chiqish uchun taqdim qilingan “Atrof muhitga ta’siri to‘g‘risida bayonot” (AMTTB) loyiha hujjatlari amaldagi O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni, nizom hamda qonunosti ekologik me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiq ishlab chiqilganligi aniqlandi.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” DM Samarqand viloyati filiali, Samarqand tumani, “Qo‘shko‘prik” MFY, “Pillakor” ko‘chasi 270-uy manzildan fuqaro Abdullayeva Matluba Raximovna tomonidan mavjud binolarni buzib o‘rnidan yakka tartibdagi uy-joy binosini qurish uchun ishlab chiqilgan “Atrof-muhitga ta’siri to‘g‘risidagi bayonot” (AMTTB) loyihasini **mazkur xulosada keltirilgan talablarni bajarish sharti bilan ma’qullaydi.**



Ma’sul ekspert: NORKULOV G‘IYOS NAJMIDDINOVICH